

TABIATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

Ro'ziyeva Sevara

Baxriyeva Durdona

Rofiyeva Gulnoza

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 3-bosqich talabalari

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada tabiatning jamiyat hayotidagi o'rni haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Tabiat, jonsiz va jonli, jamiyat, ekologik muammolar, munosabat, ikkinchi tabiat, tabiiy jarayonlar.*

Tabiat – bu organik (tirik) va noorganik (notirik) dunyoni o'zida qamrab olgan bir butun olam. Tabiat — odamning paydo bo'lgunigacha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq hisoblanadi. Umuman — bu dunyo, odam, koinot; mikromakromegadunyolar; jonsiz va jonli borliq. Tor ma'noda — tabiat fanlari o'rganadigan obyekt. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (masalan, dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqa esa tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi. Odam tomonidan, ya'ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda „ikkinchi tabiat“ deyiladi. Masalan, vodoroddan urangacha bo'lgan 92 ta kimyoviy element tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sun'iydir. Barcha sun'iy sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro energiyalari „ikkinchi tabiat“ga kiradi. Odamning tabiatga munosabati tarixda o'zgarib va rivojlanib bordi. Antik falsafada tabiatga

stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in'ikosi (Platon), uyg'un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta'limotlarda tabiat ruhiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb xisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg'onish davrida tabiatga hamma tabiiy uyg'unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida karaldi. Yangi davrda tabiatga bo'lgan munosabat tabiatning ilmiy o'rganish ob'yektiga aylanishida katta rol o'ynadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqa bog'laydigan, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadigan qismi atrof-muhit deb ataladi. Yerning ustki qatlami va yer osti boyliklari, iqlim va boshqa shu kabilar atrof-muhitni tashkil etadi. Atrof-muhit insonning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyati uchun doimiy, abadiy va zaruriy shart-sharoitdir. Ayniqsa, insonning tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyati va ijodiy faoliyatini oshiradi. Tadqiqotchi A.R.Meliboyevning fikricha, tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar sohasida ekologik muammolar paydo bo'ladigan yo'nalishlarni aniqlash favqulotda muhim pedagogik va psixologik muammo hisoblanadi.

Bunday munosabatlar tabiat zahiralardan oqilona foydalanish maqsad va usullarini baholash zarurati paydo bo'lganda yuzaga keladi:

- insoniyatning tabiatga nisbatan munosabatlarining xususiyati (maqsadsiz, shaxsiy qiziqish, atrof-muhitga nisbatan loqaydlik, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, iste'molchilik, ehtiyotkorona, faolijodiy)ni;

- tabiat zahiralardan foydalanish maqsad va usullarini baholash zarurati paydo bo'lgandagina yuzaga keladi.

Bunday baholashga zarurat tabiiy omilning inson va jamiyat uchun ham muhim insoniy qadriyat ekanligidan hosil bo'ladi. Jamiyat a'zolarining farovonligi va huzur-halovati atrof-muhit holatiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug'ilish, yashash, o'sish, faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, usadi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta'sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog'liq hamdir. Tabiatga bog'liq omillar texnika, iqtisodiy ekologik munosabatlarini ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarni muvofiqlashtirish

zarurligini taqozo etadi. Bolalarni ilk yoshidan hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularga mehr uyg'otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofaza qilish ekologik tarbiyaning dastlabki elementlaridan biri sifatida tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammodir. Ayniqsa, bu yo'nalish maxsus o'rganilmaganligi, hozirgi kunda esa davlat va jamiyatning barkamol shaxsga bo'lgan ehtiyojining kuchayganligi dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali etetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o'ta dolzarb muammolardan hisoblangan.

Tabiat bilan tanishish insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo'lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega. Shu nuqtai nazardan O'rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an'anaga ega. Tabiatni asrab avaylash ardoqlash insonning burchi ekanligi haqidagi ta'limotlar Turoni Turkistondan yetishib chiqqan buyuk olimlarning ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Allomalar o'z davrida tabiatdan foydalanish, ular bilan bog'liq bo'lgan voqea, hodisalar haqida boy ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Tabiatga mehr, yuksak axloq – odobini tarbiyalash lozimligini o'z asarida bayon etganlar. Hadisi sharifimizdagi tabiat, tabiatni avaylab asrash, uni ko'paytirish, parvarish qilishga oid bandlari bilan ham tanishib. uni chuqur tahlil qilinadi. Ilm – fan, ma'rifat – madaniyat asrlar davomila insoniyat olamida so'nmas mash'al bo'lib, yoritib kelgan. Bizga ma'lum bo'lmagan tarix zarvaraqlari qatida pinhona yotgan qadriyatlarimiz, noyob qo'lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz istiqloq sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o'rganilmoqda. Tarix – insonning barkamollik, taraqqiyot yo'li. Moziyii bilmaslik o'zini anglamaslikdir. O'zini anglagan halqgina buyuk kishilarning nomlarini e'zozlab ruhi poklarini doimo yod etadi. Agar biz o'tmish tariximizga, nazar tashlasak, yashab ijod etgan pedagoglarimiz o'zlari ijod etgan davrlardayoq bolaning har tomonlama o'sishida, ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning nozne'matlari uning mo'jizalaridir deb ta'kidlab o'tganlar.

Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo'ladi. Bu haqda buyuk pedagog olimlarimiz o'zlari yashab o'tgan davrda, bolaning har tomonlama o'sishida ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matidir deb, ta'kidlab o'tganlar. Biz hozirda o'tmishdagi pedagoglarimizning dono fikrlari va ilmiy asarlariga suyanganmiz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda foydalanamiz. Tabiatga muhabbat – juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg'udir. U yuksak ruhiy va akdiy qatlamlarni o'z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muxitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M. Umarovning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o'zi yashab turgan mahalliy o'lka va O'zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko'ngil qo'yish ishtiyoqi o'sib boradi. Bolalikda tug'ilgan bu tuyg'u maktab yillarida rivojlanib, boyib boradi.

Kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof-muhitdagi faoliyati asosan o'z-o'zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagi tabiatga bo'lgan bunday munosabatning asosiy sababi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi Oila, mahalla, bir so'z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining pedagogik ta'siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiat haqida ishonarli ma'lumotlarni egallashlari juda muhim.

Inson jamiyati tabiatning bir qismidir. Va bunga ko'p dalil kerak emas. Zero, har bir inson tanasida tabiiy kimyoviy, biologik va boshqa jarayonlar sodir bo'ladi. Inson tanasi uning tabiiy asosi sifatida ishlaydi ijtimoiy faoliyat ishlab chiqarish, siyosat, fan, madaniyat va boshqalar sohasida.

Qoida tariqasida, jamiyatda sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlar ijtimoiy shaklga ega bo'ladi va tabiiy, birinchi navbatda, biologik qonuniyatlar biosotsial bo'lib ishlaydi. Buni odamlarning oziq-ovqat, issiqlik, nasl qoldirish va boshqalarga bo'lgan tabiiy ehtiyojlarini qondirish haqida aytish mumkin. Ularning barchasi ijtimoiy shaklda to'g'ri tayyorlangan oziq-ovqat (deyarli har bir xalqning o'z

“oshxonasi” bor), ko'pincha ma'lum estetik mezonlarga javob beradigan qurilgan uy-joy, shuningdek, ijtimoiy tashkil etilgan oilaviy muloqot yordamida qoniqishadi. Biosotsial qonuniyatlar jamiyat taraqqiyotida biologik va ijtimoiy tamoyillarning o'zaro ta'sirini ifodalaydi. Tabiatning jamiyat hayotidagi o'rni har doim katta bo'lgan, chunki u uning mavjudligi va rivojlanishi uchun tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi. Odamlar o'zlarining ko'pgina ehtiyojlarini tabiat, birinchi navbatda, tashqi tabiiy muhit hisobiga qondiradilar. Inson va tabiat o'rtasida moddalar almashinuvi deb ataladigan narsa bor – zarur shart inson va jamiyatning mavjudligi. Har qanday jamiyatning, butun insoniyatning taraqqiyoti tabiatning rivojlanish jarayoniga, u bilan doimiy munosabatda bo'lishiga va pirovardida, Olamning mavjudligiga kiradi. Inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bizni to'liq hisobga olishga majbur qiladi tabiiy omillar jamiyat taraqqiyotida. Shuning uchun ham tabiat doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Tabiat bag'ridan chiqib, uning eng yuqori va o'ziga xos ko'rinishi sifatida jamiyat uning xarakterini sezilarli darajada o'zgartirsa ham, u bilan aloqalarini yo'qotmaydi. Odamlarning tabiat bilan aloqalari, asosan, ularning ijtimoiy faoliyati, birinchi navbatda, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish asosida va doirasida amalga oshiriladi. Tabiat tabiiy muhit, jamiyatning mavjudligi va rivojlanishining zaruriy sharti bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Uning tabiiy muhiti birinchi navbatda yer landshaftini, jumladan tog'lar, tekisliklar, dalalar, o'rmonlar, shuningdek daryolar, ko'llar, dengizlar, okeanlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi inson hayotining geografik muhitini tashkil qiladi. Biroq, tabiiy muhit bu bilan cheklanmaydi. U shuningdek, erning ichaklarini, atmosfera va kosmosni, oxir-oqibat, hammasini o'z ichiga oladi tabiiy sharoitlar odamlar hayoti va jamiyat taraqqiyoti – mikrokosmosdan makro va mega dunyoga qadar.

Adabiyotlar:

1. Nig'matov A.N. Ekologiya Asosiy atama va iboralarning izoxli lug'ati. – T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.
2. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat. T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.

3. To'xtayev A.S. Ekologiya Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001.
4. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish: O'qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo'llanma. – T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1991.
5. M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. – T.: 2008.
6. SH.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jayeva Tabiat bilan tanishtirish metodikasi- T.: 2013 yil “Fan va texnologiya”